

DOI: 10.5281/zenodo.15744923

Link: <https://zenodo.org/records/15744923>

O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDAGI XIZMATLARNING IQTISODIY MOHIYATI HAMDA ULARNING TURLARI KLASSIFIKATSIVASI

Raxmatov Temur Sotiboldiyevich PhD.

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti

"Bank ishi" kafedrasи dotsenti

E mail: temur0363@gmail.com

Tel: +99877-777-22-72

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston bank tizimidagi xizmatlarning iqtisodiy mohiyati, ularning har bir yo'nalish bo'yicha, bajaradigan vazifalari bo'yicha, turli xil asosida turlarining klassifikatsiyasi o'r ganilgan. Tijorat banklarining xizmatlar bozoridagi ishtiroki, raqobatbardosh banklar bilan birgalikda tijorat banklarining mijozlarni jalb qilish uchun amalgalash oshiradigan xizmat turlari, an'anaviy xizmat turlari, noan'anaviy xizmat turlari hamda yangi xizmat turlari ushbu maqolada keltirib o'tilgan. Bank maxsulotlari, ularning aholining ehtiyojidan kelib chiqib xizmat turlarining kengaytirilishi ko'rsatib berilgan. Banklarni transformatsiya qilish jarayonida mijozlarning talablari ortib borishi va bu borada ilg'or innovatsion bank xizmatlarini sifatlari ko'rsatilmasligi natijasida bank mijozlarining o'z bankiga bo'lgan ishonchining kamayishiga olib kelishi hamda bank mijozlari banklarini almashtirishga yoki boshqa bank xizmatlaridan foydalanishga xarakat qilishi mumkinligi ushbu maqolada aytib o'tilgan. Bank xizmatlari ko'lamini zamонавиy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda kengaytirilgan ishlар berib o'tilgan. Ushbu maqolada tijorat banklari xizmat turlari klassifikatsiyasi jadvallar asosida, olimlar izlanishlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: bank, xizmat, bank operatsiyasi, omonat, kredit, masofaviy bank xizmatlari, bank kartalari, innovatsiya, onlayn xizmat, mijoz, diversifikasiya.

Kirish.

Bugungi kunda jahon bank tizimi va yirik tijorat banklari amaliyotidagi muammolar bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bank faoliyatining sifat jihatdan yangi darajaga chiqishini ta'minlovchi, undagi ichki va tashqi risklarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni barataf etish imkoniyatlarini beruvchi, shuningdek, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy tizimini rivojlantirish yo'nalishlariga mos keluvchi va jahon moliya bozorlarida kuzatilayotgan salbiy tendensiyalarga qarshi ta'sirchan hamda har tomonlama puxta o'ylangan bank strategiyasini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, "Deutsche Bankda (GFR) 2022 yilda 2021 yilga nisbatan kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i 0,6 foizli punktga oshgani holda, ularning daromadlilik darajasi 0,7 foizli punktga oshdi. Bank of America (AQSH) bankida, 2023 yilning 1 yanvar holatiga, kreditlar bo'yicha zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 0,1 foizni tashkil qildi. Bu esa, bank xizmatlarini takomillashtirish borasidagi ilg'or xorij tajribasini tadqiq qilish va uning amaliy ahamiyatiga baho berish zaruriyatini yuzaga keltiradi"¹⁰¹. Bugungi bank xizmatlariga ortib borayotgan talablarni imkon qadar to'laroq qondirishda ko'plab muammolar mavjudligi tijorat banklarining xizmatlarini yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda.

¹⁰¹ Deutsche Bank. Annual report 2022//(<https://investor-relations.db.com/reports-and-events/annual-reports/>); Bank of America. Annual report 2022//(<https://investor.bankofamerica.com/annual-reports-and-proxy-statements>).

Asosiy qism

Bank xizmatlari standart to‘plamining evolyutsiyasi shundan iboratki, ko‘pgina omillarning (bunda nafaqat raqobat, balki yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, yangi bank mahsulotini yaratish va hakazo) ta’siri ostida xizmatlar bozorida ularning ko‘lamni ko‘payishi bilan bir qatorda ularning tarkibi ham kengayib bormoqda. Bunday holatni mamlakatimiz tijorat banklari amaliyotida ham kuzatish mumkin. Bundan bir necha yillar muqaddam mamlakatimiz tijorat banklari sertifikatlar, veksellar, kredit kartochkalari bilan ishlamaganlar; bank xizmatchilarining leksikonida faktoring, lizing, kontokorrent, opsiyon, bankomat va boshqa tushunchalar ishlatilmagan. Bunday holatning vujudga kelishining asosiy sababi, banklar markazlashtirilgan tizimda faoliyat yuritganlar va bunday tizimda ma’lum bir bank xizmatlariga ehtiyoj bo‘lmagan. Bozor iqtisodiyoti banklar oldiga yangi talablarni qo‘ydi: banklar mijozlarining manfaatlariga to‘g‘ri keluvchi yangi operatsiyalarni o‘zlashtirishga majbur bo‘ldilar. Afsuski, banklar bu operatsiyalarning hammasini birdaniga o‘zlashtirib ololmaydilar, chunki ma’lum darajada vaqt o‘tgan bo‘lsada, banklar hali yetarli darajada tajriba ortishga ulgurganlari yo‘q. Ba’zi operatsiyalar infliyatsiya darajasi yuqori bo‘lishi, zamonaviy aloqa vositalari yetarli darajada bo‘lmasligi natijasida o‘z rivojini topmagan. Bundan tashqari, tijorat banklarining ko‘pchiligi yangi bank xizmatlari to‘g‘risida yetarli darajada tasavvurga ega emaslar, bu borada banklar o‘z xodimlarini yangi xizmatlarning mohiyati va ularni mijozlarga taqdim qilish amaliyoti borasida o‘qitishlari lozim.

Tijorat banklarining xizmatlar bozoridagi faoliyatini mijozlar bilan ishlash amaliyoti ilg‘or bo‘lgan jahon andozalari bilan solishtirish foydalidir. Mijozlarga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan banklar o‘zlarining raqobatchilaridan yuqori sifatli bank xizmatlarini ko‘rsatish imkoniyati mavjudligi bilan farqlanadilar, bundan tashqari mazkur banklar:

- ko‘plab mijozlarni jalb qiladilar;
- xizmat ko‘rsatilishi uchun boshqa banklarga o‘tadigan mijozlar sonini kamaytiradi;
- mijozlarga taqdim qiladigan xizmatlar ko‘lamini oshiradilar;
- mijozlarni ko‘proq muddatlarda o‘zlarida ushlab turadilar;
- mijozlarni qo‘srimcha daromad bilan ta’minlaydigan ko‘p xizmatlarni joriy qiladilar.

Mijozlarga xizmat ko‘rsatishga asoslangan banklar raqobat borasida ma’lum darajada afzalliklarga ega bo‘ladilar va eski mijozlarni saqlab qolish bilan bir qatorda yangilarini jalb qilish evaziga o‘zining daromad hajmini oshirib boradi. Bunday mijozlar bankning ko‘pgina xizmatlarini sotib oladi va bank bilan uzoq muddatli aloqalar o‘rnatadi.

Banklarni transformatsiya qilish jarayonida mijozlarning talablari ortib borishi muqarrar va bu borada ilg‘or innovatsion bank xizmatlarini sifatli ko‘rsatilmasligi natijasida bank mijozlarining o‘z bankiga bo‘lgan ishonchining kamayishiga olib kelishi mumkin. Natijada, bank mijozlari banklarini almashtirishga yoki boshqa bank xizmatlaridan foydalanishga xarakat qiladi. Shuning uchun banklar mijozlarining talablari binoan faoliyatini transformatsiyaqilishi, ya’ni bank mahsulotlari va

xizmatlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi bank xizmatlarni yaratishni taqozo etadi.

Bank mahsuloti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- to'lov mablag'larini yaratish;
- xizmatlarni taqdim qilish.

Tijorat banklari o'z faoliyati davomida turli xil xizmatlar ko'rsatadilar. Tijorat banklarining bu xizmatlari ular uchun ma'lum daromad olib keladi. Bu daromadlar vositachilik, komission mukofot, o'tkazmalar va yig'imlar shaklida bo'lishi mumkin. Keyingi yillarda bank xizmatlarining turlari va miqdori o'sib, bu soha bank faoliyatining sezilarli yo'nalishiga, ularning daromadining manbalaridan biriga aylanib bormoqda. O'zbekistonda tijorat banklar faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, ba'zi banklar daromadlari tarkibida asosiy o'rinni har xil ya'ni vositachilik xizmatlardan keladigan tushumlar tashkil qiladi.

Bank xizmati – bank operatsiyalarini o'tkazishni optimallashtiruvchi nazariy, texnologik, moliyaviy, intelektual va professional bank faoliyatidir.

Bank xizmati haqiqatdan ham bank faoliyati majmuasidir. Mijozlarning bank faoliyatiga bo'lgan talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlardir. Shu bilan bir qatorda bank xizmati tushunchasiga bank operatsiyalarini optimallashuvini ham muhim element sifatida kiritildi, chunki banklar xizmatning u yoki bu turini tanlashda ushbu operatsiyaning samaradorligi, qulayligi va sifatliligi darajasiga e'tibor berishlari va ushbu ko'rsatkichlar uning raqobatbardoshligini ta'minlash asosi hisoblanishini his etmoqlari lozim.

Bank mahsuloti – alohida ko'rinishdagi bank faoliyatining mijozlar talabini qondirishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan bank xizmatlari va operatsiyalarining majmui .

Bizga ma'lumki mahsulot – bu faoliyat natijasidir. Shunday ekan mijozlar talabini qondirishga yo'naltirilgan xizmatlar va operatsiyalar natijasi bank mahsulotini tashkil etadi.

Bank operatsiyasi – bank tomonidan amalga oshiriluvchi pul mablag'larini joylashishini nazarda tutuvchi va aniq iqtisodiy masalani echishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan bank va mijoz harakatlari majmui.

Tijorat banklari xizmatlarini ularning iqtisodiy mazmuniga va ko'zlangan maqsadga ko'ra ikki yirik guruhga bo'lish mumkin:

Ma'lum darajada bankning likvidliligin saqlab turish uchun bajariladigan xizmatlar.

Daromad olish maqsadida bajariladigan xizmatlar.

Ushbu ikki xizmatlar guruhi o'rtasida ma'lum nisbat mavjud bo'lib, ular bank faoliyatini sifat jihatdan ma'lum darajada ta'minlab turish imkonini beradi. Bank likvidligrini ta'minlash maqsadida bajariladigan xizmatlarning ba'zi birlari bankka daromad keltirsada, ular mavjudligini sababi bank umumiyliklikvidligrini ma'lum darajada ushlab turishdan iboratdir.

Odatda, tijorat banklarini ko'rsatadigan xizmatlarining turlari bo'yicha quyidagilar kiradi:

iqtisodiyotning real sektorini kreditlash, jismoniy shaxslarni kreditlash;

davlat qimmatli qog‘ozlari bilan amalga oshiriladigan xizmatlar; korxona va tashkilotlarning qimmatli qog‘ozlari bilan oshiriladigan xizmatlar; milliy va xalqaro valyuta bozorlaridagi xizmatlar, mijozlarga hisob-kitob va kassa xizmati ko‘rsatish;

tijorat banklarining trast xizmatlari;

banklarning konsalting xizmatlari;

lizing, faktoring, forfeyting xizmatlari va boshq.

Bank xizmatlari mijozlar ehtiyojini qondirishiga yo‘naltirilganligiga ko‘ra:

“to‘g‘ri xizmatlar” (Direct services) bevosita mijozlarning ehtiyojlarini qondiradi. Masalan, to‘lovlarini o‘tkazish, hisobvaraq ochish, investitsion xizmatlar;

“bilvosita xizmatlar” (Related services) mijozlarga taqdim etilishi bilan ularga qulaylik tug‘diradigan va foydali bank xizmatlari bo‘lib, ularga kliring, internet benking, SMS benking, konsultatsion xizmatlar, plastik kartochkalar kiradi.

Beshinchi pog‘onada mijozlarning axborotga bo‘lgan ehtiyoji turadi.

Har bir bank xizmati o‘zining mijozga ko‘rsatilayotgan jarayoni davomida bank mahsuloti ishlab chiqarilishiga sabab bo‘ladi. (1-jadval)

Bank xizmatlari bozorini rivojlanishining yangi aspekti uni milliy va xalqaro miqyosda ixtisoslashuvi, shuningdek, xizmatlar portfelining yuqori sifatiga asoslangan yirik transmilliy banklari faoliyatining universallashuvi va globallashuvi bo‘ldi. Shu bilan birga, taxminimizcha, xizmat ko‘rsatish tizimlari diversifikatsiyasi tarmog‘ida filiallar va bo‘limlar restrukturizatsiyasi kelajakda xorij banklarining muammolaridan biri bo‘ladi.

1-jadval

Bank xizmatlari va mahsulotlari¹⁰²

Bank xizmatlari turlari	Bank mahsulotlari
1. O‘z moliyaviy resurslarini ko‘paytirishga bo‘lgan ehtiyoj	
1.1. Depozit xizmatlari	Jamg‘arma omonat; muddatli omonat; talab qilib olinguncha depozit; qimmatbaho toshlarda deposit
1.2. Ishonchli boshqaruv xizmatlari	Individual ishonchli boshqaruv; bank boshqaruv umumiy fondida ulushli ishtirok sertifikati
1.3. Brokerlik vositachiligi xizmati	Brokerlik xizmati; qimmatli qog‘oz oldi-sotdisi; internet-broker; qimmatbaho metallar, naqd va naqdsizchet el valyutasi oldi-sotdisida vositachilik
1.4. Bank qimmatli qog‘ozlari asosida resurslarni ko‘paytirishxizmati	Obligatsiya, aksiya, veksel, sertifikat
2. Mijozlarning qo‘sishimcha resurslarini mobilizatsiya qilishga ehtiyoj	
2.1. Kredit xizmati	Mortalik kredit, kredit liniyasi, overdraft, ipoteka krediti, investitsion kredit, iste’mol krediti
2.2. Lizing xizmatlari	Operativ lizing, moliyaviy lizing
2.3. Faktoring	Regress huquqli faktoring, regress huquqisiz faktoring, tashqi savdo faktoringi

¹⁰² В.А.Перехожев. «Конкурентоспособность банковских продуктов на региональном рынке». Автореф. дис.канд. эконом. наук. – СПб., 2021.

2.4. Emission vositachilik xizmati	Anderryting
2.5. Investitsion (dilerlik) xizmat	Repo, qimmatli qog'oz oldi-sotdisi
2.6. Kafolat xizmati	Bank kafolati, kafillik
3. Hisob-kitoblarni amalga oshirish ehtiyoji	
3.1. Hisob-kassa xizmati	Hisob scheti, valyuta scheti, bank kartalari, akkreditiv, inkasso, to'lov topshiqnomasi, o'tkazmalar, pul cheklari
3.2. To'lov instrumentlari emissiya Xizmati	Veksellar; zakladli, hisob-kitobi va yo'l cheklari
3.3. Turli to'lov tizimlariga kirish Xizmati	Western Union o'tkazmalar; Contact o'tkazmalar; Zolotaya Korona o'tkazmalar
4. Saqlash ehtiyoji	
4.1. Seyflar ijariasi xizmati	Individual bank seyfi (yacheyka)
4.2. Depozitariy xizmati	Depo hisobini yuritish
4.3. Reyestr ushlovchi (registrator) Xizmati	Qimmatli qog'ozlar egasi reyestrini yuritish
5. Axborotga, maslahatga bo'lgan ehtiyoj	
5.1. Maslahat xizmati	Maslahat, informatsion ta'minot, tashqi savdo shartnomasini huquqiy yuritilishi
5.2. Baholash xizmati	Ko'chmas mulk baholanishi, ta'minot baholanishi, jumladan qimmatli qog'ozlar ham

Bank amalga oshiradigan hamma operatsiyalar ham bankka daromad keltirmaydi. Shunday holatlar ham mavjudki, mijozga xizmat ko'rsatiladi, biroq unga haq to'lanmaydi.

2-jadval

Bank xizmatlari turlari tasnifi¹⁰³

Tasniflash mezonlari	Bank xizmatlari
Iqtisodiy mazmuni bo'yicha	Omonot; deposit; ssuda; hisobga oid; hisob-kitob; kassa; investitsion; fond; komission; kafolat.
Risk darajasi bo'yicha	Riskli; risksiz
Mablag'larni joylashtirish tavsifi bo'yicha	Birlamchi – bank kreditor sifatida ishtirok etadi (aktiv); ikkilamchi – bank qarzdor sifatida ishtirok etadi (passiv).
Mijozlar tarkibi bo'yicha	Yuridik shaxslar; jismoniy shaxslar
Daromadlilik darajasi bo'yicha	Daromad keltiradigan; daromad keltirmaydigan
To'lash bo'yicha	Pulli; bepul
Muntazamligi bo'yicha	Muntazam; nomuntazam
Ko'rsatish usuli bo'yicha	Bank xizmatlari bilan; bank avtomatlaridan foydalanib – masofaviy; elektron xizmatlar (uydagি bank).
Taqdim qilish vaqtি bo'yicha	Tezkor; o'rta muddatli; uzoq muddatli
Hisob-kitob shakli bo'yicha	Naqd pul shaklda; naqd pulsiz shaklda

¹⁰³ Hamidi, H., & Nourani, M. (2020). Green Banking Practices: A Systematic Literature Review. Corporate Social Responsibility and Environmental Management, 27(1), 3-22.

O'tkaziladigan valyuta bo'yicha	Milliy valyutada; chet el valyutasida
Shakli bo'yicha	Shartnoma tuzish bilan; shartnoma tuzmasdan.
Murakkablik bo'yicha	Ko'p sonli iste'molchilar talab qilishi mumkin bo'lgan mahsulot va xizmatlar (hisobvaraq ochish, naqd pulni boshqarish, kliring xizmatlari); bank kadrlarining maxsus tayyorgarlik darajasini talab qiluvchi xizmatlar (aktivlarni boshqarish, investitsion xizmatlar); xizmatlardan foydalanish sohasida professional bilimlarni talab qiluvchi xizmatlar (korporativ moliya sohasidagi xizmatlar, aralash aktivlarni boshqarish); moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy injiniring sohasida maxsus bilimlarni talab qiluvchi xizmatlar.

Bank xizmatlari bozorining ahamiyatli tomonlari bir qator omillar yordamida aniqlanadi. Bular quyidagilar: rivojlangan bank infrastrukturasi, nobank moliya institutlarini kuchaytirish, jahon ssuda kapitali bozorida transmilliy banklarining yetakchiligi, ilg'or kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish.

Bank xizmatlari bozorining xususiyatlari uni tashqi savdoga xizmat ko'rsatishga moslashishi, turli moliyaviy instrumentlar shakllardagi risklar savdosini bo'yicha qarz majburiyatlarining ikkilamchi bozorining mavjudligi kiradi. Qarz majburiyatlarining ikkilamchi bozori, o'z navbatida, investitsion bank xizmatlari bozorini rivojlantirishga ko'mak beradi.

Xulosa.

Bank xizmati – bank operatsiyalarini o'tkazishni optimallashtiruvchi nazariy, texnologik, moliyaviy, intelektual va professional bank faoliyatidir. Bank xizmati haqiqatdan ham bank faoliyati majmuasidir. Mijozlarning bank faoliyatiga bo'lgan talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlardir.

Bank xizmatlari ko'rsatilishiga qarab quyidagilarga ajratiladi: bank xizmatchilari bilan; bank avtomatlaridan foydalanib – masofaviy; elektron xizmatlar (uydagи bank). Bu holat yuqorida sanab o'tilgan pulli va bepul xizmat turlarining amalda mavjud ekanligining yana bir tasdig'i hisoblanadi. Mijozga bank xizmati qayusulda ko'rsatilishiga qarab xizmat pulli yoki bepul bo'ladi.

Bank xizmatlari murakkablik darajasiga qarab turlicha turlarga bo'linadi. Masalan, ko'p sonli iste'molchilar talab qilishi mumkin bo'lgan mahsulot va xizmatlar (hisobvaraq ochish, naqd pulni boshqarish, kliring xizmatlari); bank kadrlarining maxsus tayyorgarlik darajasini talab qiluvchi xizmatlar (aktivlarni boshqarish, investitsion xizmatlar); xizmatlardan foydalanish sohasida professional bilimlarni talab qiluvchi xizmatlar (korporativ moliya sohasidagi xizmatlar, aralash aktivlarni boshqarish); moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy injuring sohasida maxsus bilimlarni talab qiluvchi xizmatlar.

Bank xizmatlari mijozlar ehtiyojini qondirishiga yo'naltirilganligiga ko'ra:

- “to'g'ri xizmatlar” (Direct services) bevosita mijozlarning ehtiyojlarini qondiradi. Masalan, to'lovlarini o'tkazish, hisobvaraq ochish, investitsion xizmatlar;
- “bilvosita xizmatlar” (Related services) mijozlarga taqdim etilishi bilan ularga qulaylik tug'diradigan va foydali bank xizmatlari bo'lib, ularga kliring, internet

benking, SMS benking, konsultatsion xizmatlar, plastik kartochkalar kiradi.

Bank xizmatlarini ommalashtirish, sifatini oshirish va raqamlashtirishni jadallashtirish yo‘nalishlari qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Bank xizmatlarining sifati va tezligini oshirish uchun yangi raqamli mahsulotlarni joriy qilish:

- xalqaro standartlar asosida sinalgan mahsulotlarni taklif qilayotgan yetakchi IT kompaniyalarini ichki bozorga jalb qilish;

- kadrlarning axborot texnologiyalari bo‘yicha malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

2. Qarzdorlarni identifikasiyalashning zamonaviy tizimlarini joriy etgan holda kreditlash jarayonlarini avtomatlashtirish:

- tijorat banklariga mijozlarni identifi-katsiyalashni amalga oshirish uchun VM huzuridagi Davlat personallashtirish markazining biometrik ma’lumotlar bazasidan foydalanish huquqini berish.

3. Masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish ulushini oshirish maqsadida banklarning operatsion faoliyatida axborot texnologiyalari keng qo‘llanilishini ta’minlash:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lov xizmatlaridan tunu kun foydalana olishini ta’minlash maqsadida barcha tijorat banklarini 24/7 rejimida ishlovchi banklararo lahzali to‘lovlar tizimiga ulash;

- masofaviy bank to‘lovlar hajmini 90 foizgacha oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1.O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi yangi taxriri “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonun.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi yangi taxriri “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun.

3. O‘zbekiston Respublikasining To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida Qonuni 01.11.2019 yildagi O‘RQ-578-son

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-yanvardagi "2020-2025-yillarga mo‘jallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi 2020-yil 30-dekabr № 276 (7778). 1-4-b.

6. Финансовая доступность в России: взгляд потребителя [Электронный ресурс] / Национальное агентство финансовых исследований. — Режим доступа: www.cgap.org/sites/default/files/WorkingPaper-Financial-Inclusion-in-Russia-Aug-2014-Rus.pdf (дата обращения 04.02.2016).

7. Питер С. Роуз, “Банковский менеджмент”, М. 2007.

8. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. - Toshkent.: «Iqtisod-Moliya», 2017-732 b.

8. Азларова А.А. Особенности развития банковской системы Республики Узбекистан на современном этапе. *Economics and Innovative Technologies*, 11 (5), 1–7

<https://scholar.google.com/scholar?cluster=10217124282259592342&hl=en&oi=scholarr>

10. Тоймухамедов, И., & Махкамова, Д. (2020). Цифровая экономика и её влияние на банковский бизнес в Узбекистане. *Экономика и инновационные технологии*, (2), 151–160. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11408

11. Bobakulov Tulkin Ibodullaevich. O'zbekiston bank tizimini rivojlantirishning zamonaviy muammolari. http://fintech.tfi.uz/wp-content/uploads/2023/12/Moliyaviy_teknologiyalar_3_son_2023_yil_1_Noyabr_ohirgi_varinati2001.pdf

12. Raxmatov Temur Sotiboldiyevich. Moliyaviy globalizatsiya sharoitida o'zbekiston tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirish yo'llari 08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent–2023

13. Raxmatov Temur Sotiboldiyevich Bank xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirish yo'llari. iqtisodiy taraqqiyot va taxlil ilmiy elektron jurnali №5 2024 y. <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/1356/1277>

14. Азларова, А., & Рахматуллаева, М. (2022). Трансформация банковского сектора – неотъемлемая часть процесса становления цифровой экономики в Республике Узбекистан. Наука и научный потенциал: основа устойчивого инновационного развития общества, 1(1), 34–37. <https://doi.org/10.47689/inlibrary-SSPBSIDS-2022-pp34-37>

15. [https://cbu.uz/upload/medialibrary/a53/wn6gcejpkxphv2v4guajin4x01h7iyxa/Yillik-hisobot-2024.pdf/ 68-bet](https://cbu.uz/upload/medialibrary/a53/wn6gcejpkxphv2v4guajin4x01h7iyxa/Yillik-hisobot-2024.pdf)